



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
OILA VA XOTIN-QIZLAR QO'MITASI  
BUYRUQ**

2023 - yil 05 iyun 56 -son Toshkent sh.

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini tartibga solish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son Qarori talablariga muvofiq,

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan davlat xaridlarini o'tkazish jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar:

Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi to'g'risidagi Nizom **2-ilovaga** muvofiq **tasdiqlansin**.

2. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil

etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sodan Qarori talablariga hamda boshqa qonun hujjatlariga belgilangan tartibda qat'iy amal qilinishi **ta'minlansin**.

3. Belgilab quyilsinki, mazkur buyruqning 2-bandisi va amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarida nazarda tutilgan tartibda Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlari bilan oog'liq barcha munosabatlar, jumladan, xarid jarayonini o'tkazishdagi adolatlilik, qonuniylik printsiplariga to'liq va xolisona riosa qilish buyicha komissiya tarkibining har bir a'zosi shaxsan mas'ul va **javobgar hisoblanadi**.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan 2022-yil 5-iyuldagagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasida tovar moddiy boyliklarni xarid qilish bo'yicha Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi 41-sonli buyruq o'z kuchini **yo'qotgan** deb hisoblansin.

5. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Axborot-tahlil ijro intizomi bo'limi (A.Ashirqulov), mazkur buyruqdan manfaatdor bo'lgan mas'ul xodimlar buyruq bilan shaxsan **tanishtirilsin**.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o'z zimmamda qoldirilsin.

Rais

O.Parpiboyeva



Haellra mezheri  
05.06.2023 y.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2023-yil “5” iyundagi 56-sonli buyrug'iga  
1-ilova

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi  
TARKIBI**

<b>№</b>	<b>FISH</b>	<b>Lavozimi</b>
<b>1</b>	M.Nurmatova	Oila va xotin-qizlar qo'mita raisining o'rinnbosari – komissiya raisi
<b>2</b>	A.Ashirqulov	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Axborot-tahlil ijro intizomi bo'lim boshlig'i
<b>3</b>	N.Latipova	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va xalqaro munosabat'larni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxssiai
<b>4</b>	N.Yunusova	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Sog'lom oilani shakllantirish va oilalarni mustahkamligini ta'minlash, milliy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash boshqarmasi etakchi mutaxassisi
<b>5</b>	U.Ortiqov	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bosh buxgalteri – komissiya kotibi
<b>6</b>	B.Saidqosimov	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bosh mutaxassisi
<b>7</b>	X.Sultonmurodov	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi xo'jalik mudiri

*Izoh:* Komissiyaning a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar kiritiladi.

"Davlat xaridlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq komissiya a'zolari tarkibi davlat xaridlarining o'tkazilishi xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik  
vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar  
qo'mitasining 2023-yil "5" iyundagi  
56-sonli buyrug'iga  
2-ilova

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar  
qo'mitasida tender, eng yaxshi takliflarni tanlash va boshlang'ich narxni  
pasaytirishuchun o'tkaziladigan auktion orqali davlat xaridlarini amalga  
oshirish bo'yicha xarid komissiyasi to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida (Keyingi o'rnlarda – Qo'mita deb yuritiladi) tashkil etiladigan tender, eng yaxshi takliflarni tanlash va boshlang'ich narxlarni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auktsion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasining (Keyingi o'rnlarda – Xarid komissiyasi deb yuritiladi) vazifalari, funksiyalari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillariga ko'ra e'longa berish va g'olibni tanlash to'g'risidagi qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial organdir.

Xarid komissiyasining asosiy maqsadi e'longa berish va ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullar orqali amalga oshirilganda g'oliblikni tanlashdan iborat.

3. Xarid komissiyasi doimiy faoliyat ko'rsatadi va Qo'mita raisining tegishli buyrug'i bilan shakllantiriladi.

4. Xarid komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to'g'risidagi Nizom, Vazirlik hay'atining qarorlari, vazir buyruqlari, topshiriqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

#### **2-bob. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari**

5. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xarid qilish hujjatlarini kelishish;
- takliflar qabul qilinadigan muddatlarni belgilash;
- takliflar baholash mezonlarini belgilash va unga asosan baholash;
- taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilash;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarning takliflarini ko'rib chiqish;
- malaka tanlovini o'tkazish, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;
- zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish;
- xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;
- xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari, ijrochisi va zaxira ijrochisini belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi qonun hujjatlari va ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

6. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'rganadi:

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta'sis hujjatlari va shartnoma tuzish vakolatini tahlil qiladi;

soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligini o'rganadi;

xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchisi haqida insofsiz ijrochilar yagona reestrda yozuv mavjud emasligini aniqlaydi;

axborotlarning ochiq manbalarida ehtimoli bo'lgan korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida ma'lumotlar mavjud emasligini aniqlaydi;

xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchisining rasmiy veb-saytidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

Qo'mitaning xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchisi bilan o'zaro hamkorligi tarixini o'rganadi;

xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligini tahlil qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini o'rganadi;

xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchisi tomonidan sodir etilgan korruptsiyaga oid huquqbazarliklar haqida ma'lumotlarni o'rganadi;

korruptsiyaga qarshi hujjatlarni tekshiradi (taqdim etilgan yoki saytdagi) (agar mavjud bo'lsa).

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rghanish "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasida davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yo'riqnomasi"ga asosan amalga oshiriladi.

### **3-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil qilish**

7. Tanlashni o'tkazishda Xarid komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Agar majlisda Xarid komissiyasi a'zolari umumiyligi sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, Xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

8. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u Xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek, Xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi.

9. Xarid komissiyasiga raislik qiluvchi quyidagi vakolatlarga ega:

Xarid komissiyasi majlislarini chaqirish va majlis kun tartibini belgilash;

Xarid komissiyasi qabul qilgan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish;

Xarid komissiyasi a'zolari tomonidan o'z zimmalariga yuklatilgan bajarilishini muvofiqlashtirish;

Xarid komissiyasi a'zolari faoliyatini nazorat qilish;

Xarid komissiyasi samarali ishlashi uchun zarur bo'ladigan boshqa choralarni ko'rish.

10. Xarid komissiyasining tezkor faoliyati uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan a'zo bo'lgan mas'ul kotib tomonidan tashkil qilinadi.

Muayyan bir davlat xaridini amalga oshirish Xarid komissiyasi a'zolarida davlat xaridi ishtirokchisi bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

11. Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilgan komissiya a'zosi muayyan xarid bo'yicha affilanganligi aniqlanganda Komissiya raisi bunday shaxsni ushbu xaridni o'tkazgunga qadar rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Komissiya a'zosini rad etish haqidagi qarori yozma shaklda rasmiylashtiriladi va rad etishga asos bo'luvchi holatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

12. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan shaxsiy manfaatli aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala

ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

13. Kvorum mavjud emasligi tufayli Xarid komissiyasi a'zosini vaqtincha almashtirish haqidagi qaror Xarid komissiyasi a'zosini vaqtincha almashtirish haqidagi qaror Xarid komissiyasi majlisi bayonnomasiga tegishli ma'lumotlar kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

#### **4-bob. Xarid komissiyasi va a'zolarining huquq va majburiyatları**

14. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) tanlov ishtirokchisidan uning malakaviy talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjat shaklida taqdim etilishini talab qilish;

b) o'z qarori bilan quyidagilarga asosan tanlov (tender) ishtirokchilarini tanlovda (tenderda) ishtirok etishni davom ettirishdan chetlatish va ularning takliflarini ko'rib chiqishni davom ettirmasdan qaytarib berishi mumkin:

insofsiz ijrochilar yagona reestrida tanlov ishtirokchilari haqidagi yozuvlar aniqlanganda;

tanlov ishtirokchilarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi mavjudligi aniqlanganda;

agar tanlov ishtirokchisida qonunchilikni buzadigan tarzda adolatsiz rahobat ustunligi yoki manfaatlar to'qnashuvi bo'lganda;

v) xarid tashabbuskori, tashkilotchisi, ixtisoslashtirilgan tashkilotdan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha har qanday ma'lumot va hujjatlarni so'rab olish;

g) tegishli organlar va tashkilotlardan xarid ishtirokchilarining xarid haqidagi hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rab olish;

d) tender/tanlov ishtirokchilariga u yoki bu taklifni rad etish sabablarini tushuntirib berish.

Bunda takliflarning narx va ishlarni bajarish muddati bilan birga mazmunini o'zgartiradigan tushuntirishlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Xarid komissiyasining a'zolari quyidagilarga majbur:

uzrli holatlardan (vaqtincha mehnatga yaroqsizlik, xizmat safari va boshqa sabablar) tashqari Xarid komissiyasining majlislariga shaxsan ishtirok etish;

qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq xaridlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tartib-taomillariga rioya qilish;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarini tekshirish bo'yicha zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish;

agar tanlov ishtirokchisi tomonidan biron-bir harakatni sodir etishga, qaror qabul qilishga yoki tanlov savdolarini o'tkazish jarayonida buyurtmachining mayyan bir xarid qilish tartib-taomilini o'tkazishga ta'sir qilish maqsadida buyurtmachining hozirgi yoki avvalgi xodimga yoki Xarid komissiyasining a'zosiga

har qanday ko'rinishdagi mukofotni taklif yohud qimmat-baho ashyoni, xizmatni taqdim qilsa yoki taqdim qilishga rozilik berganda, bevosita yoki bilvosita taklif qilganda darxol Xarid komissiyasi raisiga hamda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimga xabar berish;

tanlov ishtirokchisi takliflarida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablarning, savdo ob'ektining tanlov hujjatlarida qayd etilgan shartlarning buzilishi aniqlanganda yoki tanlov ishtirokchisi qayta tashkil etish (ajratish, qo'shish), tugatish yoki bankrotlik (molkumkini xatlash) jarayonida bo'lganda, shuningdek, noto'g'ri axborot taqdim etganda ishtirokchini tanlovdan chetlashtirish choralarini ko'rish;

komissiya a'zosi – ta'sis hujjatlari, moliyaviy jihatdan qatnashish xolding yoki boshqacha shaklda tanlov ishtirokchilari bir-biriga tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lganda o'zini o'zi rad etish;

o'z vakolati doirasida xolisona qarorlar qabul qilish.

16. Xarid komissiyasi kotibi tashkiliy-texnik tavsifdagi funktsiyalarni bajaradi, jumladan Komissiya a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnomalarni yuritadi, Komissiya a'zolariga Xarid komissiyasining navbatdagi majlisi haqida avvaldan xabar beradi, mazkur Nizomning 7-bandida belgilangan holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligini o'rganadi va bu haqda komissiya yig'ilishida ma'lum qiladi.

Xarid komissiyasi majlisida Xarid komissiyasi kotibi ishtirok eta olmaganda uning funktsiyalarini Xarid komissiyasi raisi tomonidan tayinlangan Xarid komissiyasi majlisida hozir bo'lgan a'zolarning biri bajaradi.

17. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

### **5-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil etish**

18. Xarid komissiyasi o'tkazilayotgan tanlov (tender) savdosи doirasida tanlovga (tender) oid takliflarni tayyorlash muddati haqida qaror qabul qiladi va takliflarni qabul qilishning so'nggi muddatini belgilaydi. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

19. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi tomonidan kiritilgan tanlovga oid takliflarni kiritish tartibini, hajmini va kafolat turini (zakalat yoki bank kafolati) belgilaydi.

20. Xarid komissiyasi ishtirokchilarga tanlovdan qatnashishga ruxsat berish haqidagi masalani hal qilish maqsadida ular tomonidan taqdim etilgan materillar asosida ishtirokchilarning malakaviy tanlovini o'tkazadi.

Bunda quyidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi va bu haqda tegishli qaror qabul qilinadi:

gayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida bo'lgan;

Qo'mita bilan sud yoki arbitraj orqali nizolashayotgan;

insofsiz ijrochilar yagona reestrda bo'lgan;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi bo'lgan;

Xarid komissiyasining boshqa tijorat va moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha talablarga javob bermaydiganlar.

21. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni ko'rib chiqish va maxfiylikka rioya qilingan holda saqlash belgilangan tartibda amalga oshiradi.

22. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni ko'rish vaqtini belgilaydi. Tanlovga oid takliflarni Xarid komissiyasi majlisining o'zida kollegial tarzda amalga oshiriladi.

23. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytdan boshlab o'n kundan oshishi mumkin emas.

24. Xarid komissiyasining majislari yuzma-yuz yoki sirdan (so'rov orqali, videokoferentsiyalar) o'tkazilishi mumkin.

25. Xarid komissiyasi kelib tushgan takliflarni to'g'ri kelishini batafsil o'rganish va xulosa tayyorlash maqsadida komissiya a'zolari mutaxassislardan iborat ishchi guruhi tuzishi mumkin. Komissiya tanlovga oid takliflarni texnik baholash uchun ekspert va maslahat beruvchi tashkilot vakilini jalb qilishi mumkin.

26. Xarid komissiyasi tanlov savdosi g'olib va zaxiradagi ishtirokchilari shartnomani imzolash muddatlari haqida qaror qabul qiladi. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni baholashni va Xarid komissiyasi tomonidan o'rnatilgan mezonlar asosida g'oliblarni aniqlashni amalga oshiradi.

27. Xarid komissiyasi taqdim etilgan takliflarni tasdiqlash va tanlov savdosini o'tkazish tartib-taomilining shaffofligini ta'minlash maqsadida takliflarni ko'rish jarayonida tanlov ishtirokchilari vakillarining hozir bo'lishi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

28. Xarid komissiyasining barcha qarorlari Xarid komissiyasi majislarda komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lsa, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi bo'ladi.

29. Xarid komissiyasi majislarda tanaffusga yo'l qo'yiladi. Komissiya majlisini bir kun davomida ko'chirish tanaffusi bo'lib hisoblanadi. Xaridlarning ommaviy tartib-taomilini o'tkazishda tanaffus e'lon qilishga faqat xaridlar lotlari orasida yo'l qo'yiladi.

30. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda tanlovnin o'tmagan deb topadi:
- tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki biron ta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda;
- takliflarni taqdim etish muddati tugaydigan kunga kelib tanlov ishtirokchilaridan bitta yoki takliflar kelib tushmagan bo'lsa;
- kelib tushgan takliflar savdo ob'ektining tanlov hujjatlari shartlariga javob bermasa;
- tanlov ishtirokchilari tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolarining eng yuqori baholashdan oshib ketsa.

#### **6-bob. Xarid komissiyasining javobgarligi**

31. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi tomonidan qabul qiladigan quyidagi qarorlarning asoslantirilganligi va xolisligiga, jumladan:
- Xarid komissiyasi tarkibida kvorum bo'lmasdan turib qaror qabul qilinganligi;
- tanlov ishtirokchilari intellektual mulkning daxlsizligi yoki tijorat siriga bo'lgan huquqi buzilganligi;
- tanlov ishtirokchilarini tanlovnin o'tkazish tartib-taomillarda qatnashishdan asossiz chetlatganlik;
- yopiq ahamiyatga ega bo'lgan tartib-taomilga oid masalalar natijalarini ochiq muhokama qilganlik va ko'rib chiqqanlik, maxfiy axborotni oshkor qilganlik, tanlov ishtirokchilari yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan til biriktirganlik, shuningdek, boshqa g'ayrihuquqiy harakatlarni sodir etganlik;
- Xarid komissiyasining ochiq majlisida tanlov g'olibini aniqlaganlik, tanlov g'olibini e'lon qilish tartib-taomilini buzganlik, tanlov ishtirokchilariga o'z vaqtida xabar bermaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

32. Xarid komissiyasi tanlov (tender) g'olibini ishtirokchilar orasidan aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

33. Xarid komissiyasi davlat xaridlaring boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

#### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

34. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishida aybdor bo'lgan xarid komissiyasi a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.